

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI O‘QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Raximova Ruxsora Haydar qizi

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/0009-0002-4791-0194>

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlik faoliyatini shakllantirish juda muhimdir. Bu bilan ularni kelgusi amaliy jarayonlarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga erishiladi. Shu sababli maqolada xususan didaktik o‘yinlar vositasida boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarni kreativlik faoliyatini shakllantirishga ahamiyat berildi.

Kalit so‘zlar: ona tili darslari, kreativlik, raqamli texnologiyalar, pedagogik amaliyot, aql charxi, topag‘on o‘quvchi, grammatik-orfografik tushuncha, ”Ko‘rganini eslab qolish diktanti”, ”Eng yaxshi hisobchi”, ”sanayver”, ”Bo‘g‘inlar” didaktik o‘yinlari, bilishga qiziqish.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ ДИДАКТИЧЕСКИЕ ИГР НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: Формирование творческой активности у учащихся начальной школы крайне важно. Это поможет им развить навыки самостоятельной работы в будущей практической деятельности. Поэтому в статье особое внимание уделяется

формированию творческой активности у учащихся начальной школы посредством дидактических игр.

Ключевые слова: уроки родного языка, креативность, цифровые технологии, педагогическая практика, интеллект-колесо, отстающий ученик, грамматико-орфографическая концепция, диктант «Вспомни, что видел», «Лучший бухгалтер», дидактические игры «Счётчик», «Слоги», интерес к познанию.

DEVELOPING CREATIVE THINKING IN STUDENTS THROUGH DIDACTIC GAMES IN PRIMARY GRADE MOTHER LANGUAGE LESSONS

Abstract: It is very important to form creative activity in primary school students. This will help them develop the skills of independent work in future practical processes. Therefore, the article pays particular attention to the formation of creative activity in primary school students through didactic games.

Keywords: native language lessons, creativity, digital technologies, pedagogical practice, mind wheel, slow learner, grammatical and orthographic concept, "Remembering what you saw dictation", "The best accountant", "Counter", "Syllables" didactic games, interest in knowledge.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohadagi islohotlar ta'lim tizimida ham yangilanishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Ta'lim islohotlaridan asosiy maqsad- xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiyalarning yutuqlari asosida shaxsning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat. Ta'lim- tarbiya tarixi boy ma'naviy merosga ega bo'lib, uni o'rganish va ta'lim iste'moliga kiritish kadrlar tayyorlash milliy modelida ko'rsatilganidek, hartomonlama barkamol insoni tarbiyalash va rivojlantirishda, ma'naviy sifatlarni tarkib toptirishda katta

ahamiyat kasb etadi. Ta'lim - tarbiya jarayonining shakl va mazmunini hamda uslublarini tadqiq etuvchi ilm-fan bu didaktikadur. Didaktika- ta'lim nazariyasi tushunchasini anglatadi. Ta'lim nazariyasi ta'lim- tarbiya jarayonida amal qilinishi shart bo'lgan tamoyillar, ta'lim usullari, ta'lim-tarbiya shakllari va pedagogikadagi asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi.[2] Demak, didaktika yosh avlodni "nimaga o'qitish?", "nimani o'qitish?", va "qanday o'qitish?" kabi savollarga javob beradi. Didaktika o'qitishning umumiy qonun va qonuiyatlarini aniqlab berish bilan birga, har bir o'quv fanining o'qitish usullari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Didaktik tizim ta'limda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etish maqsadi, mazmuni, vositalari, usullari, tashkiliy shakllari to'g'risidagi qarashlar (g'oyalar) majmuidir. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: Intelektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat[3] Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy ahloqiy, psixologik, estetik, badiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivoj- lantirishga yordam beradi.

Ta'lim – tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ular- ning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyil- liklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik

darajasi hisobga olinadi. Har bir didaktik o'yin mashg'ulotlariga o'ziga xos xavfsizlik talablari qo'yiladi. Bu xavfsizlik talablariga to'liq rioya qilinishi har bir tashkilot- chining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim. Bundan tashqari har bir didaktik o'yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to'g'ri belgilash va unga rioya qilishning o'ziga xos asoslarini bilish va darsning maq- sadiga muvofiq qo'llash talab qilinadi.

Didaktik o'yin turlarini tanlash me'zonlari:

- ishtirokchilar tarkibi bo'yicha o'g'il-bolalar, qiz-bolalar, qiz bolalar, o'smirlar katta yoshdagilar uchun o'yinlar;
- ishtirokchilar soni bo'yicha –yakka, juftlikda kichik guruh, sinf jamoasi, raqo- botdosh komandalar, sinflar aro va ommaviy o'yinlar ;
- o'yin jarayoni bo'yicha – fikrlash, o'ylash topog'onlik, harakatlar musobaqa va

boshqalarga yo'naltirilgan yo'llar;

- vaqt me'yori bo'yicha dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'olib yoki g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o'yinlar.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'quvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab syujetli, ro'lli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar, konferensiyalar kabi o'yin mashqlariga ajratish mumkin.

ASOSIY QISM Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tadbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi sivilizatsiya kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo'layotgan o'zgarishlar shuni taqozo qilmoqda.

Kreativlik — bu shaxsning individual xususiyati bo'lib, madaniy vositalarni shaxsiy tushunchalaridan kelib chiqqan holda qo'llashi va rivojlantirishidir. Kreativlik psixologik nuqtai nazardan tahlil etilgan va bugungi kunda pedagogik nuqtai nazaridan tadqiq etishni talab etayotgan muhim pedagogik muammodir. Kreativlik — bu o'quvchilarni innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi. Kreativlik o'quvchilarning shaxsiy sifatlarining integratsiyasidir. Chunki o'quvchi tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, bunday o'quvchi hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi. Turli xil muammoni o'quvchining o'zi mustaqil holatda bajarish jarayonida uchragan muammolarni yengishda o'quvchining kreativlik salohiyati shakllanadi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Kreativ salohiyat tushunchasi murakkab va serqirradir. Kreativlik — o'quvchilarda o'z o'zidan paydo bo'ladigan sifat emas, u o'quvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirishi va o'zining kundalik faoliyatida qo'llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olishi bilan bog'liqdir.

O'quvchining kreativligining shakllanishi «ehtiyotlar, yo'nalishlar va «Men» kontsepsiyalaridan kelib chiqadi. Ta'lim olish kengligida kreativlikni rivojlantirishning asosiy pragmatik tavsifi sifatida dialog xizmat qiladi. Shaxsning kreativligini psixolog olimlar o'quvchilarning insho yozishlari, dars jarayonlarida turli topshiriqlarga tezkor javob berishlari, didaktik o'yinlarga asoslangan o'quv-topshiriqlariga yangicha yondashuv bilan qarashlari jarayonida tahlil etishga harakat qilishgan. Ayni shu sanalganlarga e'tibor bergan holda aytish kerakki, hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar" metodi, "Sinkveyn", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Rolli o'yin", FSMU, "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag", "Oxirgi so'zni men aytay" kabi zamonaviy texnologiyalarining faol qo'llanilishini juda yaxshi bilamiz. Biroq shular barobarida dars jarayonlarida didaktik o'yinlar ham faollikdan qolishmaydi.

MUNOZARALAR VA NATIJALAR. Boshlang'ich sinflarda motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. O'yin-boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar- o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi.

Didaktik o'yinlar vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid

ruhiy xususiyatlar shakllanadi. Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida didaktik o'yin hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi. O'yindagina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi.

Didaktik o'yinlar, o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o'qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do'stga ham aylanadi. Bu esa ayniqsa dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o'yinlar bolalarda o'qituvchi va o'qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan o'yinlar bolalarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish vositasidir. "Bo'g'inlar", "Sanayver", "Qiziqarli kvadratlar" kabi o'yinlardan esa qo'shimcha mashg'ulotlarda unumli foydalaniladi. Domino o'yini Ushbu o'yin o'quvchilarning so'z tarkibi yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash va amaliyotga tadbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida o'tkaziladi. Domino o'yinini o'tkazish uchun so'z yasovchi qo'shimcha yordamida tuzilgan yasama so'zlar (negizlar) ishtirokida so'zlar zanjiri tuziladi Buning uchun o'quvchilarga bitta yasama so'z beriladi. O'quvchilar guruhlar bo'yicha galma-galiga negizlar ishtirokida zanjirni davom ettiradi. Davom ettirilmay qolgan guruh yengilgan hisoblanadi. 1. Rejali-ibratli-intizomli-ilmli-ishli-tuzli-shakarli-suvli-qorli... 2. Ilmli ishchan,-naychi-ilmoqli-ishla-arrasiz-zotli-rubobchi... 3. Sinf dosh-shovilla-a'lochi inqilla-aqlli-ishli-ijodkor-randala-anjirli ilmoqdor... Biz didaktik o'yinlarni bitta fanga emas, balki, barcha fanlarda o'qituvchining bilim va malakasidan foydalangan holda ishlab chiqish yoki tayyor o'yinlardan foydalanishimiz mumkin. Bular o'quvchining bilim olishiga yanada ko'maklashadi.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llaniladigan yoki qo'llanilishi mumkin bo'lgan didaktik o'yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. Didaktik o'yinlarning eng muhim jihati uning ikki tamonlama xarakterga egaligi bo'lib, uning dramatik san'atga ham mosligidir. Bir tamondan didaktik o'yin ishtirokchilari uni amalga oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq haqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa, o'yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida

ma'suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar. Demak, didaktik o'yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. Didaktik o'yin yoki o'yin faoliyati elementlaridan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular ishbop o'yinlar, didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, kompyuter o'yinlari va shular kabilar ko'rinishidadir. Didaktik o'yinlar ta'limiy maqsadlarni amalga oshiradigan va ularga moslashtirilgan bo'ladi. Didaktik o'yinlar tizimidan birinchi marta maktabgacha ta'lim sohasida foydalanishga doir o'quv-topshiriqlarini F.Fribil va M.Montissorilar ishlab chiqqan bo'lsa, boshlang'ich ta'lim uchun O.Dikroli tadqiqotlar olib borgan. 60-70 yillardan boshlab faqat boshlang'ich ta'limda emas, balki umumiy o'rta ta'limda ham foydalanila boshlandi. 80-yillarda ayniqsa, ishbop o'yinlar keng tarqala boshlaydi. Ishbop o'yinlarning asosiy xususiyati o'yin rejasining o'quv maqsadiga yo'nalganligidadir. Chunki o'quv maqsadi o'yin vazifalari doirasida hal etiladi.

XULOSA

O'yin o'quvchilarni ikki yoki uch o'quvchidan iborat guruhlariga bo'lish orqali amalga oshiriladi. Guruh tarkibidagi bir o'quvchi mavzuga oid so'zdan birini aytadi, ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan so'zni takrorlab, yana bir so'z qo'shadi. Shu tariqa uch o'quvchi tomonidan 324 ta so'z aytilgach, navbat yana birinchi o'quvchiga keladi. O'yin shu tariqa davom etadi. Biror o'quvchi adashib ketsa yoki aytilgan so'zni qaytarib aytsa, guruh o'yindan chiqadi. Bu o'yin suratlar asosida o'tkaziladi.[6] Ta'lim-tarbiya jarayonida ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish va mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydi. Ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy tavsifdagi izlanishlarni talab qiladigan masalalarni hal qilish uslublari bilan tanishadi. Bugungi kun ta'lim oluvchidan faol harakat qilishni, mustaqil qaror qabul qilishni, hayotning o'zgarayotgan sharoitlariga tez moslashishni talab qilmoqda. Buning uchun ta'lim oluvchi zarur bilimlarni mustaqil egallash va amaliyotda qo'llash; muammolarni yechishga qaratilgan qarashlarni taklif qilish, yangi muammolarni aniqlash va yechish; erkin va mustaqil fikrlash; innovatsion

g'oyalar yaratish qobiliyatiga ega bo'lish; o'zining intellektual salohiyati rivojlantirish ustida mustaqil ishlash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlaridan foydalanish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'yin bolaning o'z faoliyati ekanini, undagi tashabbuskorlikni va mustaqillikni saqlash hamda rag'batlantirish zarurligini hisobga olish kerak bo'ladi. Bu esa bolalar o'rtasidagi do'stona raqobat muhitini yaratish bilan birga, ulardagi jismoniy va ma'naviy tayyorgarlikni rivojlantiradi hamda jamoaviylik xususiyatini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. Mirzaulukova M.U. Didaktik o'yinlar turlari va maqsadlari. Talqin va tadqiqotlar. respublika ilmiy uslubiy jurnali. № 5. 2023. B-101-102.
3. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi Toshkent-2008,-B. 4. O.R.Roziqov va boshqalar. Didaktika.T., "Fan", 1997, 111-bet. 5. Bikbayeva N.V. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent.: O'qituvchi,
4. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma/ T.G'afforova.- T.: Tafakkur, 2011.-160 b.
5. Ismailova Asaljon Qutliboy qizi ona tili va o'qish savodxonligi darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ta'limiy ahamiyati. "journal of science-innovative research in uzbekistan" jurnali volume 1, issue 5, 2023. August
6. M. Inoyatova, A.Nosirov, M.Divanova, G.Boymurodova, A.Baxromov, M.Rasulova F.Abduqudusova. Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash. Toshkent- 2014